

**O'ZBEKISTON VA O'MON SULTONLIGI ALOQALAR****Normaxamadova Shaxloxon Baxtiyor qizi**

Yangiyo'l tuman 3-son texnikumi , o'qituvchisi

Telefon : +998885430220

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20728979>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining O'mon sultonligi bilan qadimgi tarixiy aloqalaridan boshlab, hozirgi zamonaviy holatiga qadar olib borgan hamkorlik aloqalari rivojlanishining yangi istiqbollari muhokama qilinadi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi va O'mon sultonligi o'rtasidagi yangi davr haqida ko'proq ma'lumot beriladi. Bundan tashqari bu ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy sheriklik, savdo, elchilik aloqalari, ta'lim, vizalar, turizm, eksport va inport, transport va logistika investitsiyalari kabi turli sohalarda hamkorlikni rivojlantirish tobora yuqori ko'rsatkichlarda ortib borayotganligi va kelajakda O'zbekiston va O'mon sultonligi uchun foydali tomonlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, Islom dini, ta'lim, O'mon sultonligi, Sulton Haysam bin Toriq, savdo iqtisodiy o'sish, neft, Shavkat Mirziyoyev, turizm, transport va logistika, viza, Asda Oman, O'z Oman.

Bu ikki davlatni qadimdan buyuk ipak yo'li va islom dini bog'lagan. Qadimda Movaraunnahr va Arabiston yarim oroli jumladan O'mon hududi o'rtasida uzoq vaqt davomida savdo-sotiq, madaniy aloqalar mavjud bo'lgan. Qolaversa Islom dinining yoyilishi va Movaraunnahr hududlariga bu din V-VIII asrlarda kirib kelishi Arablar haqida bilishni va aloqalar bog'lash uchun asos bo'ldi. Ilk asrlarda hadis ilmi, astronomiya, matematika va tibbiyot sohasida Movaraunnahr va Xorazm hududlarida yashagan allomalar (Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy) asarlari O'mon sultonligida ham chuqur o'rganilgan.

O'man and Uzbekistan Bridges off Ancient History and Propects for. Strategic Portnership muallif: Abdulhamid Humaid al-Kabbi (Ummon) shu nomli maqolasida O'monlik tadqiqotchining O'mon "Hormuz" Onlayn gazetasida "O'mon va O'zbekiston Qadimgi tarix ko'priklari va strategik sheriklik istiqbollari" sarlavhasida maqola chop etildi. Muallifning fikricha [1] O'mon portlari tarixan Sharq va G'arbni bog'laydigan dengiz yo'llari bo'lib xizmat qilgan. Samarqand, Buxoro va Toshkent esa Markaziy Osiyoning asosiy ilmiy va tijorat markazlari bo'lganligi haqida izohlaydi.

Hozirgi davrga kelib ya'ni XXI asr boshlarida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Institutining yangi binosini qurishda Sulton Qobus bin Said o'z hissasini qo'shgan. 2018-yilning mart oyida Institutning yangi binosini ochilish marosimida ishtirok etgan O'mon delegatsiyasiga Sulton Haysam bin Toriq Ol



Said rahbarlik qilgan[2]. Bundan xulosa qilish mumkinki o'tmish bilan kelajak bir-biriga uzviy bog'liqdir. Bu orada uzoq muddat aloqalarda uzilish bo'lib, faqatgina XX arsning so'ngi choragiga kelib munosabatlar qayta tiklandi. Hozirgi davrda ham prezident Shavkat Miziyoiev O'zbekiston va O'mon Sultonligi bilan olib borayotgan turli xil kelishuvlar har ikki mintaqaga uchun ham manfaatlidir. Eng birinchi navbatda ikki davlatning ham siyosiy ham iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy aloqalari doirasidan kelib chiqqan holda tahlil qilish lozim.

O'zbekiston Fors ko'rfazi davlatlari bilan munosabatlari [3] ni yanada yaxshilash va yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2019-yilning 11-aprel sanasida prezident Shavkat Mirziyoyevning qarori bilan mustahkamlab qo'yildi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston va Arab mamlakatlari, xususan Ummon Sultonligi o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari hamda istiqboldagi yo'nalishlarini tahlil qilishda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini xalqaro iqtisodiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy faoliyat va davlatlararo hamkorlik masalalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili asosida O'zbekiston va Ummon o'rtasidagi diplomatik hamda iqtisodiy aloqalarning shakllanish bosqichlari o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali ikki davlatning iqtisodiy salohiyati, savdo aloqalari, investitsiyaviy imkoniyatlari hamda hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari taqqoslab tahlil qilindi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida energetika, qishloq xo'jaligi, turizm, transport-logistika va investitsiya sohalaridagi hamkorlik imkoniyatlari o'zaro bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, rasmiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar, maqolalar hamda ochiq statistik ma'lumotlardan manba sifatida foydalanildi.

Maqolada tahliliy va umumlashtirish metodlari yordamida mavjud iqtisodiy aloqalarning hozirgi holati baholanib, O'zbekistonning Fors ko'rfazi davlatlari bilan, xususan Ummon Sultonligi bilan hamkorligini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar

O'mon sultonligi bugungi kunda jadal rivojlanayotgan zamonaviy davlat bo'lib, Konsitutsiyaviy monarxiyaga asoslangan. Sultonlikning hozirgi sultoni Xaysam bin Toriq Al Said 2020-yildan beri boshqarib kelmoqda. XX asrning so'ngi choragida O'zbekiston bilan ilk [1] aloqalari 1992-yil 22-aprelda diplomatik



aloqalar o'rnatilishi bilan boshlandi. BMT va Islom hamkorlik tashkiloti doirasida bir-birini qo'llaydi. 2009-yilda birinchi prezident I.Karimov tashrifi bilan hamkorlik yanada mustahkamlangan. Shu yili [4] birinchi prezident qaroriga ko'ra O'mon sultonligi bilan investitsiya hamkorligini kengaytirish chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Sulton Haysam bin Toriq hokimyatni egallagandan keyingi dastlabki o'n oy ichida "O'mon nigohi-2040" bilan hamqadam bo'lish maqsadida davlatni boshqaruv apparatini qayta qurib, turli sohalarni qat'iy iroda va tinimsiz qat'iyat bilan yangilashga erishdi. Neft [5] daromadlariga bog'liqlikni kamaytirish va mahalliy sanoatni rivojlantirish orqali O'mon barqaror va bardoshli davlat qurmoqda. O'mon sultonligini neft zahirasi cheklanganligi sababli mamlakat diversifikatsiyaga e'tibor qaratmoqda. Bundan tashqarti turizm, transport, savdo va boshqa sohalarni rivojlantirish orqali neftga bo'lgan qaramlikni kamaytirish bilan mamlakatning kelajakdagi iqtisodi uchun foydali qarorlar qabul qilmoqda.

2017-2025-yillar oralig'ida O'zbekiston va O'mon sultonligi o'rtasidagi turizm va transport aloqalari huquqiy poydevor yaratish bosqichidan amaliy va jadal integratsiyalashuv davriga o'tdi.

2016-yilning 23-aprel kuni Markaziy Osiyo, Fors ko'rfazi hamda O'mon dengizi portlari transport yo'lagini yaratish bo'yicha Ashxobot bitimi kuchga kirdi [6]. Mazkur bitim transport harajatlarini optemallashtirish maqsadida yuklarni tashish tezligini oshirishga, hamda rasmiy hujjatlar va tartib qoidalarini osonlashtirish va uyg'unlashtirishga imkon beradi.

O'mon hududiga kirish uchun 14 kunlik vizasiz rejim joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi O'monliklar uchun esa 30 kun vizasiz yurishlariga qaror chiqardi. Bu qaror 2025-yilning 1-iyundan e'lon qilingan.

2024-yilda esa transport vazirligida uchrashuv bo'lib o'tgan. Bu uchrashuvda transport va logistika hamkorlikni rivojlantirish masalasi muhokama qilingan. Avia qatnovlarni yo'lga qo'yish logistika markazlarini barpo etish va Transafg'on temir yo'li qurilishi yuzasidan hamkorlik haqida fikrlar bo'ldi.

2026-yili yana uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda O'mon sultonligini Salala Sohar va Duqm portlari orqali yuk tashish imkoniyatlarini yo'lga qo'yish va multimodal logistika yo'nalishlarini rivojlantirish qolaversa savdo iqtisodiy aloqalarni yaxshilash haqida gap bordi.

O'mon davlartida Asda Oman gazetasi mavjud bo'lib, nashr arab mintaqasi va xalqaro miqyosidagi siyosiy iqtisodiy, madaniy va ilmiy yangiliklar haqida habar berib boradi. Bu gazeta O'zbekistonda bo'layotgan iqtisodiy islohotlar,



turizm salohiyati, investitsion loyihalar va prezidentni amalda bajargan ishlarini butun ommaga taqdim etadigan xorijiy OAV lardan biridir.

O'zbekiston O'mon sultonligi bilan ko'pgina kompaniya va korxonalar qo'shma hamkorligida faoliyat yuritib kelmoqda bulardan biri O'z.Oman investmen kompaniya hisoblanadi. Bu qo'shma korxona 2009-yilda tashkil etilgan. Bu korxona ikki davlat o'rtasidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish bilan faoliyat olib boradi. Faoliyat yo'nalishlariga logistika va infratuzilima loyihalarini kiritadi. Bu hamkorlik hozirgi kungacha faoliyat olib bormoqda va juda yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqda.

Muhokama

Diplomatik asoslar. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar mustaqillikdan keyin o'rnatilgan. Ummonning Toshkentdagi elchixonasi 2010-yil aprelda ochilgan, O'zbekistonning elchixonasi esa Maskatda faoliyat yuritadi[10]. So'nggi yillarda yuqori darajadagi aloqalar jadallashgan: 2025-yil 24-fevralda Prezident Shavkat Mirziyoyev Ummon tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad Al Busaidiyni qabul qilib, vazir Sulton Haysam bin Tariq Al Saidning shaxsiy salomini yetkazgan; suhbat asosan savdo, iqtisodiyot va investitsiya sohalariga qaratilgan[8].

Huquqiy-shartnomaviy baza. Hamkorlikning asosiy huquqiy poydevori 2009-yilda shakllangan. 2009-yilda ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish, investitsiyalarni o'zaro himoya qilish bo'yicha bitimlar imzolangan, Ummon-O'zbekiston Biznes kengashi va Qo'shma komissiya tashkil etilgan; umuman jami 20 ga yaqin bitim va memorandum imzolangan. Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya muntazam yig'ilib turadi[11].

Investitsiya hamkorligi. Markaziy mexanizm — qo'shma investitsiya kompaniyasi. 2009-yilda tashkil etilgan UzOman Capital (O'zbek-Ummon kapital kompaniyasi) Ummonning Davlat zaxira jamg'armasi va O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi o'rtasidagi qo'shma fond bo'lib, kapitalini 100 million dollardan 200 million dollarga oshirgan. Komissiyaning navbatdagi yig'ilishida UzOman Capital taxminan 200 million dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirgani qayd etilgan[12].

Savdo va ustuvor sohalar. Hamkorlik investitsiya, savdo, logistika, transport, energetika, ta'lim va turizmni qamrab oladi. 2025-yilda tomonlar havo transporti sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, O'zbekiston mahsulotlarini Ummon portlari orqali qayta eksport qilish hamda ilmiy tadqiqot, innovatsiya va oliy ta'lim sohalarida hamkorlikni kuchaytirishga kelishgan. 2025-yil avgustida O'zbekiston delegatsiyasi Maskatda Ummon investitsiya boshqarmasi va yetakchi kompaniyalar (Suhail Bahwan Group, Sohar International Bank, Asyad Group va



boshqalar) bilan neft-kimyo, energetika, kon-metallurgiya, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, oziq-ovqat, logistika va turizm sohalarida loyihalar muhokama qilgan[12].

So'nggi rivojlanish. 2026-yilda iqtisodiy aloqalar 20 ta yangi qo'shma loyiha bilan chuqurlashtirilgan; Ummon tomoni 16–18-iyun kunlari bo'lib o'tadigan 5-Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishini tasdiqlagan[13] [14].

Tarixiy-madaniy zamin. Ikki xalqning aloqalari Buyuk ipak yo'li davriga borib taqaladi: Ummon portlari orqali lubon (xushbuy smola) va mis kabi mahsulotlar savdosi olib borilgan.

O'zbekiston va O'mon davlatlari har ikkisi ham tinchlik tarafdori bo'lib kelmoqda. Hamma narsalarni tinch yo'l bilan hal qilishga urunmoqda.

Arab mamlakatlari gaz, naft ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha yetakchilardan sanaladi. Bundan tashqari jahon energetika bozoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Zahiralariga ham ega. O'zbekiston buni hisobga olishi muhim. Arab davlatlari turizmga ham ancha tajribaga ega. O'zbekiston turizmni rivojlantirish borasida ham maslahat va takliflar olsa bo'ladi.

Fors ko'rfazi investitsiyalarini e'tiborini tortish hususida ko'p imkoniyatlaridan hali to'laligicha foydalana olmadik.

Savdo-sotiqda biz ularga turli xil ho'l va quruq meva va sabzavotlar yetkazib berishni keng qamrovda yo'lga qo'yishimiz lozim. Chunki O'mon hududining asosiy qismi toshloq chollar va tekisliklardan iborat bo'lganligi sababli hosildorlik ancha kam va poliz ekin mahsulotlariga talabi juda yuqori.

Xulosa

Katta iqtisodiy imkoniyatlariga ega davlat endi rivojlanayotgan Respublika uchun katta iqtisodiy imkoniyatlarni yaratib, ichki savdo, eksport, import salohiyatini oshirish imkoniyatlarini beradi. Bundan tashqari turizm sohasini rivojlantirish va moddiy zahira manbalari yo'lida olib borilayotgan hamkorliklari har ikki taraf uchun ham manfaat olib kelishi mumkin va kelajak uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin

Adabiyotlar:

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.09.2009-yildagi PQ 117 son qarori. www.lex.uz

2 Ummon O'zbekiston bilan hamkorlikka talpinadi. <https://uza.uz/uz/posts/ummon-ozbekiston-bilan-hamkorlikka-talpinadi-801574>

3 O'zbekiston Respublikasi "Xalq so'zi" gazetasi 2009-yil 6-oktabrdagi soni.// O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1202-sonli Qarori. 09.10.2009. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ummon Sultonligiga Davlat tashrifi



chog'ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish va ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida.

<https://www.lex.uz/ru/docs/>

4 O'zbekiston Respublikasi prezidenti PQ 1202-sonli qarori 09.10.2009

5 O'zbekiston Respublikasi prezidentining 29.09.2009-yil PQ 1197-son

6 O'zbekistonning ko'rfaz arab mintaqasi mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlari rivojlanishi Muallif: Asilbek Shukurov

7 Nosirova Nilufar Yuldashevna Ummon sultonligining davlat boshqaruvi tuzilishi evolutsiyasi, hozirgi holati va istiqbollari

8. Times of Oman — "Oman and Uzbekistan have a lot in common to grow stronger bonds" <https://timesofoman.com/article/132027-oman-and-uzbekistan-have-a-lot-in-common-to-grow-stronger-bonds>

9. Kursiv Media (uz.kursiv.media) — "Uzbekistan and Oman strengthen economic and diplomatic ties", 24.02.2025

<https://uz.kursiv.media/en/2025-02-24/uzbekistan-and-oman-strengthen-economic-and-diplomatic-ties/>

10. Oman Observer — "Oman, Uzbekistan relations deep-rooted", 14.03.2018. <https://www.omanobserver.om/article/60509/Local/oman-uzbekistan-relations-deep-rooted>

11. O'zbekiston Investitsiyalar qo'mitasi (invest.gov.uz) — "Economic partnership between Uzbekistan and Oman reaches a new level" <https://invest.gov.uz/mediacenter/news/economic-partnership-between-uzbekistan-and-oman-reaches-a-new-level/>

12. Oman Observer — "Oman, Uzbekistan strengthen trade and investment ties", 14.06.2025 <https://www.omanobserver.om/article/1171935/business/oman-uzbekistan-strengthen-trade-and-investment-ties>

13. Trend.Az — "Uzbekistan and Oman agree to expand investment and trade co-op", 22.08.2025. <https://www.trend.az/business/4082409.html>

14. Trend.Az — "Uzbekistan, Oman deepen economic ties with 20 new joint projects", 04.05.2026 <https://www.trend.az/business/4181991.html>